

60+ erkaklar va 55+ yosh ayollar uchun aviachiptalarga 15% gacha chegirma

2024 3 Oktabr

Keksalar uchun turizm oyligi munosabati bilan Uzbekistan Airways barcha ekonom klassdagi tariflarga 15% gacha chegirma taqdim etadi. Chegirma 2024-yil 1-noyabrdan 30-noyabrgacha amalga oshiriladigan mahalliy aviaqatnovlarga amal qiladi.

Chegirmali aviachipta xarid qilayotganda yoningizda O'zbekiston Respublikasi fuqarosining pasporti yoki ID-kartasi bo'lishi kerak.

Chegirmali aviachiptalarni Uzbekistan Airways Sales filialida, aviakompaniyaning O'zbekistondagi rasmiy agentlaridan, shuningdek www.uzairways.com saytida xarid qilishingiz mumkin. Yo'lovchi va yuk tashish tariflariga qo'shimcha ravishda turli soliqlar, yig'imlar va to'lovlar ham o'rnatiladi. Ularga 15% gacha taqdim etiladigan chegirma amal qilmaydi.